

PESHKU TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

**O‘zbekiston xalq yozuvchisi, bolalar yozuvchisi Hakim Nazir (Nazarov
Hakim Nazirovich) tavalludining 110 yilligi (1915-2008)**

“Hakim Nazir - bolalarning sevimli yozuvchisi”



Hakim Nazir
(1915—2008)

Kitobxonga esdalik

Soʻz boshi

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir 1915 yil 15 oktyabrda Toshkentning Arpapoya mahallasida mahsidoʻz kosib oilasida tavallud topdi. Boshlangʻich maʼlumotni uyida onasi Malika otin maktabida olgan. Mehnat faoliyatini 15 yoshidan oyoq-kiyim fabrikasida boshlagan. ishlab turib, kechki yshchi-yoshlar maktabida oʻqishni davom ettirgan. 1941 yilda Toshkent Davlat pedagogika institutining kechki boʻlimini, 1954—1956 yilda Moskvada Oliy Adabiyot kursini bitirgan.

1933 yildan «Lenin uchquni» gazetasida ishlay boshlagan. Shundan beri 50 yil davomida uzluksiz bolalar matbuotida, respublika radioeshittirish Davlat qoʻmitasida, Badiiy adabiyot nashriyotida, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy xodim, boʻlim mudiri, masʼul kotib, bosh muharrir, adabiy maslahatchi vazifalarida xizmat etdi.

Hakim Nazirning adabiy faoliyati 30-yillarning oʻrtalaridan boshlangan boʻlib, dastlabki mashq hikoyalari 1934 yilda «Lenin uchquni», «Yosh kuch», «Vojatij» kabi gazeta-jurnallarda bosilgan. Birinchi kitobi «Qishloqdagi jiyanlarim» 1948 yilda nashr etilgan. Kattalar va bolalar uchun jami chop etilgan kitoblari 50 dan ortiq. Ularda odob-axloq, odamiylik, doʻstlik va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik haqida bahs boradi. Bolalarning rang-barang olamlari gavalantiriladi.

Adibning «Pionerlar bogʻi» (1950), «Besh baho» (1955), «Choʻl havosi» (1958), «Yaxshi nom» (1962), «Meni taniysizmi?» (1963), «Bolajonlarim» (1964), «Ali bilan Sher» (1971), «Bir ogʻiz soʻz» (1982), «Baqaloq va chaqaloq» (1998) kabi hikoyalar toʻplamlari shu jihatdan xarakterlidir.

Adibning bolalar uchun yozgan qissalari orasida «Koʻkorol chiroqlari» (1954), «Yonar daryo» (1966), «Kenjatoy» (1976), «Tohir-Zuhra qissasi» (1985) va «Dadamni topib beringlar» (1991) kabi asarlarida yoshlarning boy, begʻubor va sirli ichki olami, mehnatga, oila va muhabbatga, hayotga boʻlgan munosabatlari ifoda etilgan.

Yozuvchining «Lochin qanotlari» (1973) romani oʻzbek bolalar va oʻsmirlar adabiyotida juda kam yoritilgan urush mavzusiga bagʻishlangan.

Hakim Nazir dramaturg sifatida «Chiranma gʻoz — hunaring oz» pesasi bilan oʻzbek bolalar dramaturgiyasi rivojiga oʻz hissasini qoʻshgan. Asar koʻp yillar davomida Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qoʻyilgan va qoʻyilmokda.

Yozuvchi ijodida kattalar uchun yozilgan hikoyalar, ocherklar va qissalar ham yetakchi oʻrinni egallaydi. Jumladan, «Musobaqadoshlar» (1950), «Odamning qadri» (1958), «Oʻtlar tutashganda» (1960), «Onaizor» (1961), «Aziz odam» (1964), «Shoshilinch telegrammalar» (1987) kabi hikoyalar va ocherklar toʻplamlari. «Suv gadosi» (1962) va «Koʻkterak shabadasi» (1988) kabi qissalari shular jumlasidandir.

Hakim Nazirning 50 yilligi munosabati bilan ikki jildlik «Tanlangan asarlari» (1969—1970), 60 yilligi munosabati bilan besh jildlik «Tanlangan asarlari» (1977—1981) chop etilgan. Yozuvchining 80 yilligi munosabati bilan uning ikki yangi kitobi bosilgan — biri «Oq fотиha yoki bolalik sarguzashtlarim» xotira-qissasi (1995), ikkinchisi esa «Yodimdasiz, azizlarim» (1995) esdaliklaridir.

Hakim Nazirning oʻnlab kitoblari rus, qozoq, kirgʻiz, turkman, tojik, gruzin, arman, ukrain, belorus, latish, litva, eston, nemis, frantsuz, ispan, bulgʻor, chex, moʻgʻul tillariga agʻdarilgan.

Uning nashr etilgan asarlarining umumiy tiraji bir yarim milliondan oshib ketgan.

Hakim Nazir besh jildlik «Tanlangan asarlari» uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan (1981). 1984 yilda unga «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan. U Xans Kristian Andersen nomidagi Xalqaro Faxriy diplom bilan ham mukofotlangan (1984), «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

Hakim Nazir 2008 yil 15 may kuni vafot etgan.

"Oqibat" Asariga bibliografik sharx

Hakim Nazirning asarlarini tahlil qilar ekanmiz, ortiqcha o'ylantiradigan epizodlarning kamligi, xalq tilidan yozilganligi, soddaligi bilan ajralib turishiga amin bo'lamiz. Voqealar rivojining bir maromda borishi asarni o'qishli qilgan. Avvalo, uning "Oqibat" hikoyasiga to'xtalaylik. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, oqibat - insonlarning bir-biridan hol-ahvol so'rab turishi, sog'ligi, yurish-turishidan xabardor bo'lishi, bemor chog'ida salomatlik so'rab borishi kabi bir nechta insoniy sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Hikoya Aziza xolaning ayvon to'rida kasali qo'zg'ab qolgani uchun cho'zilib yotganidan boshlanadi. Barcha obrazlar markazida o'ziga oro berib, yasanib yuradigan lo'bar, fe'li ayniganroq ayol - Lazokatxon obrazi turadi.

Keksalik davrida yolg'iz qolgan qo'shni ayolga qilayotgan beminnat iltifoti orqasidan bo'ladigan voqealar rivoji kitobxonni hikoyaning keyingi davomini o'qishga undaydi. Kelinining otasi tuzukkina tadbirkorlardan ekanligini, ishlari yurishib ketgandan keyin saxiyligi tutib qolganini, qiziga yaqinidagi uydan bir kvartira olib berganini Aziza xola qo'shnisiga xokisorlik bilan aytib beradi. Ko'hna, tor pastqam hovlisida siqilibroq yashashayotgani-yu, o'z-o'zidan o'g'li O'ktam ham rafiqasi ketidan ergashganini kuyunchaklik ila, yuragi dardga to'lib gapiradi. Jismoniy jihatdan og'rib yotgan Aziza xolani ruhiy jihatdan ham qiynalmasligini istagan Lazokat opa O'ktamning ishxonasiga tegishli bir-ikkita telefon raqam topib, telefon qilishi qo'shnisiga bo'lgan g'amxo'rlik, yaxshi kunida ham, yomon kunida ham birga bo'lish, qo'shnisiga nisbatan mehribonlik tuyg'ularini barq urib rivojlanganini ko'rsatadi. Albatta, qo'shnichilik munosabatlari azal-azaldan o'zbek xalqiga xos odat bo'lib kelgan.

"Ha, egachi, o'z onalik qadringizni bilmasangiz shunaqa bo'ladi. Kelingiz yuzsizlik qilgan bo'lsa, o'g'lingiz o'ylashi, onaizoriga rahm qilishi kerak edi" - degan gaplari Lazokatxonning cho'rtesar, shaddod, aniq gapni aytishi, dangalchi ekanligini ko'rsatadi.

Og'irlashib qolgan Aziza xolaga doktor chaqirishga majbur bo'ladi. O'g'li ham bu xabarni eshitib, silliqqina bo'lib kirib keladi. Lazokat opa ham O'ktamga og'ir dashnomlar yog'diradi. U esa "yer yorilmadi, yerga kirib ketmadi".

MUHOKAMA

Bilamiz, turmushda har xil farzandlar uchraydi. Bir xillari o'z shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishadi, o'z huzur-halovatlariga berilib ketishadi-yu, ota-ona oldidagi burchlarini unutib qo'yishadi. Ana shunday betavfiqlar qatoriga kirib qolgan farzandni Hakim Nazir o'z asarida o'ziga xos tarzda yoritib bera olgan. Onalarning ortiqcha tortinchoqligi, xokisorligini o'zgacha tarannum etgan.

NATIJA

Ona siymosi haqidagi asarlar ko'p. O'.Hoshimov. S.Ahmad asarlaridagi singari H.Nazir ham ONA obrazini betakror, jozibali tasvirlaydi. Farzandining onasiga nisbatan oqibatsizligi haqidagi

"Oqibat" hikoyasidagi xotima qismi ham rishtalarning qayta ulanishi, tiklanishi bilan yakunlanadi.

XULOSA

Hikoya o'ziga xos poetik jihatdan yoritilgan. O'g'liga bir so'z aytishga iymnadigan, fikrini bildirishga tortinadigan, yomon kunlarini ham sezdirmaslikka harakat qiladigan haqiqiy ONA obrazi tasvirlangan. H.Nazirning asarlaridagi qahramonlar bevosita hayotdan olingan. Voqealar reallik bilan barobar yuradi. Lazokatxon obrazi ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni qayta tiklanishiga sababchi bo'lgan, tarbiyali ayol. O'rnak bo'ladigan xislatlari juda ham ko'p. Shu bilan birga, qo'shnisiga bo'lgan mehribonlik, qayg'urish tuyg'ularini, qo'lidan kelgancha yordam berish, yolg'izlatib qo'yimaslik kabi o'zbekona urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan obraz timsolida ko'rishimiz mumkin. H.Nazir asarlaridagi qahramonlarni badiiy to'qima sifatida kiritishda o'zining hayot davomidagi qarashlari, ko'rgan-bilganlarini, ilmiy tajribadan o'tgan voqea-hodisalarni asos qilib olgani ham alohida ahamiyatga ega.

H.Nazir hikoyalarida tarbiyaviy ruh yetakchilik qiladi. Ota-onaga bo'lgan hurmat, keksalik chog'ida qadrlash, doimo hurmat qilish, xizmatini bemminat, og'ishmasdan bajarish kabi insoniy sifatlar asosiga qurilgan asarlarini to'laligicha yoritib bera olgan.

Axborot bibliografiya xizmati